SCIENCE CONNECTS PEOPLE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF

2026 / No. 1(1)

Contemporary Pedagogical and Philological Research

TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA TO‘Y BILAN BOG‘LIQ BO‘LGAN LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANILISHI

Muxtorova Sevinch Anvar qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asaridagi to‘y bilan bog‘liq bo‘lgan lingvokulturologik birliklarning qo‘llanilishi, ularning ma’lum bir hududga xos nomlanishi muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, lingvokulturologiya, lingvokulturologik birliklar.

Til-millatning ko‘zgusi, uning ma’naviy boyligi hisoblanadi. Bilamizki, har bir millat o‘z milliy qadriyatlari, urf-odatlari bilan ajralib turadi. Bu jarayon esa bevosita tilning ishtirokisiz amalga oshmaydi. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo‘lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniaytni o‘zida aks ettiradi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, til va madaniyat o‘zaro bir-biriga bog‘liq tushunchalar hisoblanadi.

Tilshunoslikda til va madaniyatning o‘zaro aloqasini o‘rganuvchi soha mavjud bo‘lib, u lingvokulturologiya deb ataladi. Yaqin yillargacha lingvokulturologiya Yevropa tilshunosligidagi eng yangi yo‘nalish hisoblanar edi, ammo qisqa muddat ichida olimlarning bu yo‘nalishga xos bo‘lgan kategoriya va tamoyillarini ishlab chiqishi evaziga bu soha rivojlandi hamda XXI asrning boshiga kelib alohida fan sifatida shakllana boshladi.

Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V. fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Bu sohaning shakllanishida A.A. Potebnya, L. Vaysgerber, X. Glins, X. Xols, UD. Uitni, D. Pauell, F. Boas, E. Sepir, B.L. Uorf, Brutyan, A. Vejbitskaya, D. Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi.

Lingvokulturologiya jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya’ni uning ongi, shuuri, ommaviy an’analari, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan til ifodalarining qo‘llanilishini tadqiq etadigan fan hisoblanadi. G.G.Slishkin ta’biri bilan aytganda, lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i, insondagi madaniyat omiliga yo‘naltirilgan. Lingvokulturologiyaning obyekti – madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va ta’sirini bir butunlikda tadqiq qilishdir. Lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o‘zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo‘lishi mumkin, ma’lum bir odat frazeologizmga, maqolga, matalga aylanishi mumkin.

Lingvokulturologik birliklarning qo‘llanilishi, ularning biz, asosan, badiiy matnlarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Badiiy matnda bunday birliklarning qo‘llanilishi xalqning madaniy merosi, dunyoqarashi va milliyligini ifodalaydi. Jumladan, ozbek xalqining sevimli yozuvchisi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida ham o‘zbek xalqiga, xususan, Surxondaryo viloyatiga xos bo‘lgan milliy urf-odat va an’analar o‘z aksini topgan. Ayniqsa, ushbu asarda to‘y bilan bog‘liq bo‘lgan bir qancha lingvokulturologik birliklarni ko‘rishimiz mumkin:

Oy o‘tdi.

Kelinnikiga ko‘rpa-to‘shak matolari bilan paxta keldi... Bu, to‘qqiz deb ataldi. (13-bet)

“To‘qqiz taboq” nikoh to‘yida kuyov va uning jo‘ralari kelinni olib ketish uchun kelishganida bajariladigan odatlardan biri. An’anaga ko‘ra, kelinning uyida kuyov va uning jo‘ralarini mehmon qilish uchun maxsus xona tayyorlanib dasturxonga to‘qqiz xil tansiq taomlar tortiladi. To‘qqiz toboq” udumi bajarilgach, kelin tomon kuyovga alohida sarpo kiydirgan, jo‘ralariga esa belbog‘ bog‘laganlar.

It g‘irillatar.

Kampir o‘ldi.

Soch siypatar.

Qo‘l ushlatar bo‘ldi. (21-bet)

Kelinni kuyovnikiga olib ketguncha o‘tkazilgan «kelin yashirar», «to‘sh talashar», «it irillar», «chiroq aylantirar», «kampir o‘ldi», «kampir tush ko‘rdi»,«soch siypatar», «oyna ko‘rsatar», «qo‘l qisar», «to‘shak to‘ldirar» kabi qator udumlar o‘tkazilgan va ularning ayrimlari hozir ham saqlanib qolgan.

Oyna ko‘rsatar baridan-da zavqli bo‘ldi, baridan-da gashtli bo‘ldi!

Kayvoni ayol kelin-kuyovga oyna tutdi. Kelin-kuyov yuzlarini oynadan olib qochdi. Kelin qarasa, kuyov qaramadi, kuyov qarasa, kelin qaramadi! (21-bet)

Bu udumda ishlatiladigan oyna, albatta, yangi, ya’ni ishlatilmagan bo‘lishi shart bo‘lganligi tufayli mazkur udumni bajarishda kuyov tarafdan kelinning sepiga solingan oynadan foydalanganlar. Xalq qarashlariga ko‘ra, oynaga kim birinchi bo‘lib qarasa, ko‘zguda o‘sha insonning taqdiri yozilib qolar ekan. Kelin-kuyovni oynaga juft qilib qaratish orqali ularning oynada aks etgan ruhi qo‘shilishiga ishonishgan. Ushbu oyna kelin-kuyovning o‘zlariga berilgan va ular bu ko‘zguni “baxt oynasi” sifatida maxsus tikilgan “oyna xalta”ga solib, uyning to‘riga osib, asrab-avaylaganlar.

Kayvoni momo kelinni to‘ylovchilarga salom berdira berdi.

Soydan ho‘kiz suvlatgan,

Do‘mbirasini kuylatgan,

0‘g‘illarini uylatgan -

Qaynotamga salom!

Osmondagi yulduzday,

Qoshi qora qunduzday,

Dili oydin kunduzday -

Qaynonamga salom!

Baytlar kayvonidan bo‘la berdi, ta’zimlar kelindan bo‘la berdi.

Qozonlarning qopqog‘i,

Ayollaming oppog‘i,

Misli olma yonog‘i -

Gulsun opamga salom!

G‘ijim ro‘mol o‘ragan,

Burilib oyga qaragan,

Sochin silliq taragan -

Sanam xolamga salom!

Bog‘da uzum g‘o‘rasi,

Kuyovbekning jo‘rasi,

Norguloyning to‘rasi -

Bahrom akamga salom!

- Kayvoni momo, hamsoyasi Suvon daroz, men

qolib ketdim, deb o‘pkalayapti.

- Unda, eshitsin:

Tegirmonning noviday,

Adras to‘nning bog‘iday -

Daroz akamga salom!

Norboy cho‘pon o‘rnidan turib ketdi.

- Ay, momo, kelin nimaga menga salom bermaydi? - dedi.

- Salom berganim bo‘lsin. Eshiting:

Qopga tiqqan poxolday,

Indan chiqqan shoqolday

Norboy akamga salom!

Bo‘ldi kulgi!

- Hay ukkag‘arning momosi-ye, bekor o‘pkalabman-a!

Kelin keldisi yaxshi, to‘y bo‘ldisi yaxshi! (37-bet)

“Kelin salom” marosimi turkiy va boshqa xalqlarda turli shakllarda uchraydi. Kelinning yangalari va ayol qarindoshlari to‘y kechasi kelin bilan birga kuyovning xonadonida qoladi. Quda taraf nikohdan so‘ng kelin tomondan qolgan mehmonlarni alohida ziyofat qilib mehmon qiladilar. Erta tongdan shirchoy bilan siylangan yangalar kelinni yasantirib “kelin salom”marosimini o‘tkazishga tayyorlanishadi va xonadon egalariga belgi berishadi. Shundan so‘ng kelin yanga yoki yoshi ulug‘ kayvoniy ona kelinni yonida duo-qilib “kelin salom”ni boshlaydi. “Kelin salom”ni boshida mana shunday chiroyli kunlarga shukronalik qilib, Allohga va payg‘ambarlarga salom berishdan boshlanadi va keyin xonadon kattalariga, ana undan keyin kelin qaynona-qaynotalariga salom beradi. Kelin ta’zim bilan egilib-egilib salom beradi va ular salomga javoban kelinning boshiga ko‘rmana qo‘yishadi.

Yuz ochar bo‘ldi.

Kelinlar yuzini ochish begunoh norasidalar ishidir. Shu bois, momolar to‘rt-besh yashar kuyov-ukani gij-gijladi. Kuyov uka chopqillab bordi. Yangasi yuzidagi ro‘molni tortib yubordi. Kelin yuz ochdi.(38-bet)

O‘zbekistonda nikoh to‘yi marosimidan keyingi kuyovning xonodonida yaqin qarindoshlar va qo‘ni qo‘shnilar ishtirokida o‘tkazildigan marosim “yuz ochdi” deyiladi. Ushbu marosimda kelinni yangalari yordamida yuziga oq ro‘mol tashlagan holda yig‘ilganlar huzuriga olib chiqilgan. Shundan so‘ng xonadonning yosh bolasi tomonidan uning yuzidagi ro‘mol yoki oq xarir parda o‘qlov yoki mevali daraxtning shoxi bilan ochilgan va uzoqroq joyga olib qochilgan. Avvallari kelin yuzi ochgandan so‘ng u o‘zi to‘qigan ro‘molchalarni kuyov tomondagi bolallarga tarqatgan. Kelinning yuzini ochishda mevali daraxtning shoxidan foydalaniladi. Bunda mevali daraxtning serpushtlik xususiyati kelinga ham o‘tsin, serfarzand bo‘lsin, degan niyat mujassamlashgan. Qolaversa, yosh bola tomonidan kelinning yuzini ochilishi ham ushbu

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

udumning bo‘lg‘usi oila serfarzand bo‘lsin degan niyatda amalga oshiriladi.

Umuman olganda, badiiy asarlarda bu kabi birliklarning qo‘llanilishi orqali ma’lum bir xalqning madaniy merosi, tarixiy qadriyatlari hamda milliy urf-odat va an’analari ko‘rsatib beriladi va bu jarayonda, albatta, til birliklari ma’lum ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Samarqand: SamDU, 2021.

2. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2014.

3. Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. -Тошкент: “Тафаккур зийо”,2015.

4. Махмараимова Т. Лингвокультурология.-Тошкент – 2017.

5. Axmedova O. O‘zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyati. -Toshkent, 2019.

6. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. -Toshkent: Pharos ambition, 2024.